XALQ DEPUTATLARI QIZILTEPA TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 28-fevral VII-5-35-5-72-K/25 Qiziltepa tumani

Qiziltepa tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida

“O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi **299-sonli** qarorining **1-ilovasi** bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom ijrosi yuzasidan hamda tuman hokimining 2024-yil 11-noyabrdagi 150-5-72-F/24-sonli farmoyishiga asosan, Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan Navoiy viloyati Qiziltepa tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniga ko‘ra tumandagi shahar, shaharcha va qishloqlarining umumiy peremetri **945943 metr** umumiy maydoni **222645,22 gektar** ekanligi aniqlandi.

Jumladan:

Qiziltepa shahri umumiy peremetri 17651 metr, umumiy maydoni 807,67gektar;

Baland G‘ardiyon shaharchasi umumiy peremetri 7421 metr, umumiy maydoni 121,40 gektar;

G‘amxo‘r shaharchasi umumiy peremetri 8653 metr, umumiy maydoni 99,22 gektar;

G‘oyibon shaharchasi umumiy peremetri 8265 metr, umumiy maydoni 192,15 gektar;

Xusbuddin shaharchasi umumiy peremetri 14174 metr, umumiy maydoni 188,72 gektar;

Oqmachit shaharchasi umumiy peremetri 5820 metr, umumiy maydoni 88,93 gektar;

Oqsoch shaharchasi umumiy peremetri 5910 metr, umumiy maydoni 138,73 gektar;

O‘rtaqo‘rg‘on shaharchasi umumiy peremetri 14387 metr, umumiy maydoni 170,08 gektar;

Qal’ayi-Azizon shaharchasi umumiy peremetri 16481 metr, umumiy maydoni 190,79 gektar;

Uzilishkent shaharchasi umumiy peremetri 12110 metr, umumiy maydoni 141,76 gektar;

Vang‘ozi shaharchasi umumiy peremetri 9226 metr, umumiy maydoni 145,74 gektar;

Zarmetan shaharchasi umumiy peremetri 13193 metr, umumiy maydoni 386,36 gektar;

Xo‘jaqo‘rg‘on shaharchasi umumiy peremetri 10632 metr, umumiy maydoni 103,54 gektar;

Bo‘ston qishlog‘i umumiy peremetri 61864 metr, umumiy maydoni 6065,52 gektar;

G‘ardiyon qishlog‘i umumiy peremetri 39436 metr, umumiy maydoni 3006,85 gektar;

Oq-oltin qishlog‘i umumiy peremetri 60615 metr, umumiy maydoni 7673,61 gektar;

Vang‘ozi qishlog‘i umumiy peremetri 85529 metr, umumiy maydoni 7272,55 gektar;

Xo‘ja Hasan qishlog‘i umumiy peremetri 150532 metr, umumiy maydoni 14927,55 gektar;

Arabon qishlog‘i umumiy peremetri 132125 metr, umumiy maydoni 40215,92 gektar;

Yangihayot qishlog‘i umumiy peremetri 206097 metr, umumiy maydoni 135356,05 gektar;

Zarmetan qishlog‘i umumiy peremetri 65824 metr, umumiy maydoni 5352,07 gektar;

Qiziltepa tumani ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilashda shahar, shaharcha va qishloqlar chegaralari ajratib ko‘rsatilgan holda tavsiflandi. Chegaralar chizig‘ining yozuvli matni tavsifida joyning tegishli topografik elementlari bilan bog‘lanib, chegara nuqtalari o‘rtasidagi masofasi va chegara chizig‘ining qutb yo‘nalishlari aks ettirildi. Chegara chizig‘ining burilish nuqtalari koordinatalari ko‘rsatildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan, Davlat kadastrlari palatasining Qiziltepa tumani filiali rahbarining axborotini tinglab, taqdim etilgan ma’lumotlar fikr va mulohazalarini hamda taklif va tavsiyalarini atroflicha o‘rganib chiqib, “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6- va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Davlat kadastrlari palatasining Qiziltepa tumani filiali rahbari **U.Xo‘jamov**ning Qiziltepa tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risidagi axboroti hamda Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan Qiziltepa tumanidagi shahar, shaharcha va qishloqlarning chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan tuman hokimligida tuzilgan ishchi guruh tarkibining 2024-yil 30-yanvardagi 5-sonli yig‘ilish bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qiziltepa tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniy natijalari to‘g‘risidagi ma’lumot 1-ilovaga muvofiq, ma’muriy-hududiy birliklarning chegaralarini belgilash bo‘yicha kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi matbuot xizmati (A.Umedov) mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytida yoritilishini ta’minlasin.

4. Ushbu qarorning tasdig‘i, xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashidan so‘ralsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish, tuman hokimining barcha o‘rinbosarlari hamda xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmalariga yuklansin.

Sessiyada raislik qiluvchi BOBOJONOV ULUG‘BEK RAXIMOVICH

Xalq deputatlari Qiziltepa tumani
Kengashining
2025-yil 28-fevraldagi
VII-5-35-5-72-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Qiziltepa tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniy natijalari to‘g‘risida
MA’LUMOT

T/r	Ma’muriy-hududiy birliklarning nomi	Umumiy peremetr (metr)	Umumiy maydoni (gektar)
1	Qiziltepa shahri	17651	807,67
2	Baland G‘ardiyon shaharchasi	7421	121,40
3	G‘amxo‘r shaharchasi	8653	99,22
4	G‘oyibon shaharchasi	8265	192,15
5	Xusbuddin shaharchasi	14174	188,72
6	Oqmachit shaharchasi	5820	88,93
7	Oqsoch shaharchasi	5910	138,73
8	O‘rtaqo‘rg‘on shaharchasi	14387	170,08
9	Qal’ayi-Azizon shaharchasi	16481	190,79
10	Uzilishkent shaharchasi	12110	141,76
11	Vang‘ozi shaharchasi	9226	145,74
12	Zarmetan shaharchasi	13193	386,36
13	Xo‘jaqo‘rg‘on shaharchasi	10632	103,54
14	Bo‘ston qishlog‘i	61864	6065,52
15	G‘ardiyon qishlog‘i	39436	3006,85
16	Oq-oltin qishlog‘i	60615	7673,61
17	Vang‘ozi qishlog‘i	85529	7272,55
18	Xo‘ja Hasan qishlog‘i	150532	14927,55
19	Arabon qishlog‘i	132125	40215,92
20	Yangihayot qishlog‘i	206097	135356,05
21	Zarmetan qishlog‘i	65824	5352,07
Jami		**945943**	**222645,22**

Xalq deputatlari Qiziltepa tumani
Kengashining
2025-yil 28-fevraldagi
VII-5-35-5-72-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Qiziltepa tumanidagi hududiy birliklarning chegaralarini belgilash bo‘yicha kartografik chizmasi

